

## LINGVOPOETIK MAQSADNING VOQELANISHIDA TINISH BELGILARINING UZUAL FUNKSIYALARI

**Ilhom Nurmurotov**

Turon universiteti Sharq tillari kafedrası o'qituvchisi

**Zarbuvi Eshmurodova**

Turon universiteti G'arb tillari kafedrası magistri

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'zbek tilida punktuatsion belgilarning me'yoriy va uzual funksiyalari va poetik matnda ulardan har bir ijodkorning individual foydalanishi, badiiy matnda boshqa til birliklari singari tinish belgilarining ham muhim ahamiyat kasb etishi yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** tinish belgilari, punktuatsion belgilar, polifunksionallik, lingvopoetika, individual uslub, semiotik aspekt.


**Annotation.** This article discusses the normative and customary functions of punctuation marks in the Uzbek language, their specific use by each author in poetic texts, and the importance of punctuation marks in literary texts, like other language units.

**Key words:** punctuation marks, polyfunctionality, linguopoetics, individual style, semiotic aspect.

Barcha til birliklari singari tinish belgilariga doir me'yorlar mavjud bo'lib, ular nutq uslublari doirasida ma'lum vazifalarni ifodalab keladi. Ushbu me'yorlar mutaxassislar tomonidan ilmiy manbalarda namunaviy misollar bilan ko'rsatib o'tilgan. Me'yor (norma) – til birliklarini nutqning u yoki bu ko'rinishida ishlatish qonuniyatlari va imkoniyatlari bo'lib, ular jamiyat tomonidan belgilangan va aniqlangandir<sup>1</sup>. Til me'yorlari ilmiy manbalarda qat'iy belgilangan bo'lsa ham, shiddat bilan davom etayotgan ijtimoiy-tarixiy jarayon til taraqqiyotiga qanday ta'sir ko'rsatsa, uning amaliy me'yorlariga ham shunday ta'sir qiladi. Demak, ana shu taraqqiyot talablaridan kelib chiqib, me'yor darajasini ham doimo kuzatib borish va tartibga solib turish lozim bo'ladi<sup>2</sup>. Yuqoridagi tadqiqotlarda ta'kidlab o'tilganidek, barcha til birliklari singari tinish belgilariga oid me'yorlar ham o'zgarib turgan. Bu o'zgarishlarni quyidagi jadval misolida ko'rish mumkin:


<sup>1</sup>Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1995. – B. 7.

<sup>2</sup>Karimov S. Тил таълими ва меъёр. Ўқув қўлланма. – Тошкен: А.Қодирий, 2002. – Б. 14.



Dastlabki punktuation me'yorlar juda sodda funksiyalarni o'zida jamlagan bo'lib, yozuv taraqqiyoti natijasida punktuation uzus (odat) hamda muallif punktuation siyasi (muallif uslubi)dan kelib chiqqan holda yangi vazifalarni o'zida me'yorlashtiradi. Badiiy asarlar tadqiqida ko'rish mumkinki, bugungi kunda ham hali me'yorlashtirilmagan ko'plab uzuslar hamda muallif uslubiga oid qo'llangan noodatiy tinish belgilari o'ziga xos poetik vazifalarni bajarimoqda.

Tilning estetik vazifasining asosiy namoyon bo'lish o'rni badiiy asar matni ekan, bu vazifaning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishda adabiyot nazariyasi, adabiyot tarixi, poetika kabi adabiyotshunoslik yo'nalishlari va lingvistik stilistika, til tarixi, leksikologiya, semasiologiya, etimologiya, grammatika kabi tilshunoslik yo'nalishlari bir-biri bilan hamkorlikda ish ko'rishi lozim<sup>3</sup>. Barcha til birliklari poetik matnda ijodkorning badiiy niyatini yoritishga xizmat qiladi. Bu borada barcha til elementlari singari tinish belgilari ham muhim vazifa bajaradi. Tinish belgilari me'yor, uzus (odat), noodatiy holatda ham poetik imkoniyatni namoyon eta oladi:



Me'yoriy holatda tinish belgilarining barchasi ham badiiy matndagi poetik vazifalarga xizmat qiladi. Nuqta, vergul, nuqtali vergul, qo'shtirnoq kabi tinish belgilari bajargan poetik vazifalar boshqa til birliklari bilan uyg'unlashib ketadi, shu sababli ularning ushbu imkoniyatlari badiiy matnda alohidalik kasb etmaydi. Ko'p nuqta, undov, qavs, tire, ikki nuqta, so'roq kabi punktuation belgilarda poetik imkoniyatlar ancha sezilarlidir. Me'yorlarining shakllanishi va rivojlanib borishi davomida uzoq tarixiy yo'l va muddatni o'taydigan til ana shu jarayonda, asta-sekinlik

<sup>3</sup>Йўлдошев М. Бадий матнинг лингвопоетик тадқиқи: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2009. – Б. 25.

bilan bo'lsa-da, takomillashib ham boradi. Bu holni uning ichki qurilishida, amalda bo'lish qoidalarining ma'lum bir tizimga kela borishida kuzatamiz<sup>4</sup>. Ushbu me'yorlar til qonuniyatidan kelib chiqqan holda yangi tushunchalar bilan boyib borgan. Ba'zi me'yorlar esa o'z vazifalarini yangi qoidalarga o'zgartiradi yoki iste'moldan chiqadi. Biz o'rganayotganimiz – me'yor masalasi ijtimoiy hayotimiz uchun yangilik emas. Til va jamiyat mavjudki, bu masala ham o'rtada. Ammo har bir davr o'z taraqqiyoti bilan bog'liq ravishda tildan foydalanishning o'z muammolarini, dolzarb vazifalarni keltirib chiqaraveradi. Masalani ana shunday tushunish to'g'ri bo'ladi, deb o'ylaymiz<sup>5</sup>. Demak, ehtiyojlardan kelib chiqqan holda umumiy me'yorlar ham o'zgarib turgan. Bu o'zgarishlarni uzuslarning me'yorlashishi jarayonida ko'rishimiz mumkin.

Poetik matnlarning asosiy mezonlari hisoblangan ohang va qofiya she'riy asarlarni bir ritm asosida ijro etish imkonini berdi. Bu jarayonda tinish belgilari ham muhim ritmik vositalardan biri sanaladi. Xususan, ularning ekspressiv sintaktik tuzilmalarini tasniflash uchun tavsiya etilgan til birliklari orasida eng ko'p e'tibor qaratiladigan xususiyat jumlaning me'yoriy qoidalaridan chetlashishi hisoblanadi. Ushbu jarayonlar aniq me'yoriy tuzilmaning kengayishi, murakkablashishi, implikatsion va me'yoriy tuzilmalarni qisqartirish, inversiya kabi holatlar bilan tavsiflanadi<sup>6</sup>. Bugungi kun badiiy uslubida qo'llanilgan punktuatsion belgilar qat'iy me'yorashtirilmagan hamda ulardan qay yo'sinda foydalanishni ijodkorlar o'z uslubidan kelib chiqqan tarzda belgilamoqda. Modern adabiyotda tinish belgilarining erkin qo'llanishini Sh.Xolmirzayev quyidagicha izohlaydi: "...yangicha jumla qurilishlarini, mavhumiyatni bordek ko'rsatish uchun shunga muvofiq til lozim. Ammo baribir... ular til yo'rig'ida oqsashlari ustiga, jiddiy ishlamayotirlar ham. Ishonmasangiz – ixtiyor o'zingizda, u moderniy mualliflar ko'pincha tinish belgilarini ham o'z o'rnida ishlatmaydilar... Bu borada realistik yo'ldagi adiblarning yutug'i ko'p. Balki bu borada tilimizga rosa ishlov berilganidadir"<sup>7</sup>.

Tinish belgilari til birliklari orasida sintaktik-grammatik, ritorik-fiziologik va fonetik-prosodik kabi turli vazifalarni bajaradi. Zamonaviy she'riyat deb hisoblangan davrning chegaralarini kengaytirish va tilni hatto tasvir, musiqa va so'z interfeyslarida ham mavjud bo'lgan material sifatida tadqiq qilish ommalashdi<sup>8</sup>.

Yuqoridagi tadqiqotlardan ma'lumki, o'zbek tilshunosligida imlo hamda tinish belgilarini tartibga keltirish maqsadida bir necha bor me'yorlar ishlab chiqilgan. Belgilangan mavjud me'yorlarning amalda qo'llanishi ko'plab uslublarda amal qilinsada, poetik matnlarda ulardan uzoqlashish orqali turli yangicha ifodaviylikka erishiladi.

<sup>4</sup> Каримов С.А. Тил таълими ва меъёр. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Абдулла Қодирий, 2002. – Б. 8.

<sup>5</sup> Каримов С.А. Кўрсатилган асар. – Б. 15.

<sup>6</sup> Воробьева Е. Н. Экспрессивный синтаксис английского языка: систематический обзор. Филологические науки. Вопросы теории и практики. – 2022. Том 15. Выпуск 7. – С. 2167-2173.

<sup>7</sup> Холмирзаев Ш. Кечирасиз жаноб Карпендер, вактим зикрок / Ўзбекистон адабиёти ва санъати газетаси. 2000-й, 27-июль. – № 31.

<sup>8</sup> Stuckatz K. "Ein Beitrag zur modernen weltichtung" ernst jandl und die internationale avant-garde. Doctor of Philosophy. – German: The Pennsylvania State University, 2014. – B. 9.

Buning natijasida muallif punktuatsion belgilardan ba'zi o'rinlarda voz kechishi, ba'zi o'rinlarda esa ma'nodoshini tanlash, noodatiylik hamda individuallikni yuzaga chiqarish kabi jarayonlar orqali o'z uslubini shakllantiradi. Badiiy matndagi til vositalarining grafik tomoni ularning akustik voqelanishi bilan muhim parametr hosil qiladi va prosodik simbolizm singari grafik shakllarning tashqi tomoni ham individuallik kasb eta boshlaydi, bu jarayon mualliflar tomonidan tildagi qat'iy belgilangan tinish belgilariga oid me'yorlarning atay chetlab o'tilganligi bilan izohlanadi. Ushbu istisnolar mualliflar tomonidan badiiy vosita sifatida e'tirof etiladi hamda badiiy matnga xos emotsional-yekspressivlikka xizmat qiladi. Bu holatni nemis tilshunosi H.Fridrix "dissonant taranglik" deb ataydi va uni zamonaviy poetikaning maqsadi deb biladi<sup>9</sup>.

Shakliy izlanishlar, albatta, tinish belgilarida ham turli me'yorlarni shakllantira boshlaydi. Davr nuqtayi nazardan odatiy qoidalarga muvofiq yozilgan badiiy uslubga taalluqli poetik matnlar barcha yozuvchilarga xos doimiy uslub ko'rinishida tinglovchilar tomonidan bir xil va oddiy san'at sifatida qabul qilinadi, shu bois modernizm adabiyotida eski qoidalardan chetga chiqish ma'lum odatga aylana borgan.

"Uzus" lotin tilidan olingan bo'lib, "foydalanish, ishlatish, odat" ma'nolarini anglatadi. Tilshunoslikda ushbu atama ma'lum bir til birligining muntazam va ommaviy takrorlanishi va amaliyotda umumiy iste'moli bilan mustahkamlangan holatlar uchun ishlatilib, u biror til umumjamoasida shakllangan til birliklarining amalga oshish varianti bo'lib, bir tomondan me'yor ta'siri ostida rivojlanadi, ikkinchi tomondan esa yangi til birliklarini muomalaga kiritgani va eskilarini muomaladan chiqarib tashlagani holda me'yorni aniqlaydi va uning rivojlanishiga imkon tug'diradi<sup>10</sup>. Bundan kelib chiqadiki, til me'yorlari turli-tuman ko'rinishdagi nutqiy hosilalar hamda jarayonlarning in'ikosi bo'lgan uzuslardan olinadi. "Uzus" adabiy me'yordan ko'ra kengroq tushuncha bo'lib, tilning me'yorga kirmay qolgan vositalarini ham o'z ichiga oladi. Ularning me'yorlashuvi esa amaliyot bilan bog'liq holda ijtimoiylik kasb etsagina amalga oshiriladi. Demak, uzus xalq tili me'yorining hamda lingvistik vositalarning tabiiy majmuasi hisoblanadi. Ushbu xususiyati orqali adabiy tilga yaqinligi anglashiladi, ammo bu holat adabiy til me'yorini ma'lum davrda uning yordami bilan to'la anglash uchun yetarli hisoblanmaydi. Adabiy til me'yori faqat uzus yordamida belgilanadi, deyish noto'g'ridir. Lisoniy me'yorning vujudga kelishi va takomillashishida faqat tildan foydalanish muhim vosita emas. Xulosa qilib aytganda, adabiy til me'yorining yuzaga kelishida uzus ma'lum o'rin tutsa-da, muhim hamda asosiy rol o'ynovchi omil hisoblanmaydi<sup>11</sup>. "Uzus" tushunchasi nutq bilan, me'yor esa til bilan qiyoslanadi. Aniqroq qilib aytganda, bu tushuncha nutq bilan,

<sup>9</sup>Friedrich H. Die Struktur der modernen Lyrik: von der Mitte des neunzehnten bis zur Mitte des zwanzigsten Jahrhunderts. – Reinbek bei Hamburg: Rowohlt, 2006. – P. 310.

<sup>10</sup>Бегматов Э., Маматов А. Адабий норма назарияси. II қисм. – Тошкент: Наврўз, 1998. – Б. 22.

<sup>11</sup>Кондрашова Н. Пражский лингвистический кружок. – Москва: Прогресс, 1967. – С. 340.

me'yor esa til bilan bog'langan. Nutq va til tizimi birgalikda tilning yagona hodisasini tashkil qiladi.

Barcha til birliklari singari punktuatsiyaga doir me'yorlar ham ma'lum uzuslar hisobiga yangi normalarni o'zida mujassamlashtirgan. Ushbu uzuslarning ba'zilari me'yorlashtirilgan bo'lsa-da, ba'zilari bugungi kunda ham me'yorga kiritilmagan holda ijtimoiy vazifa bajarmoqda. "Uzus" (odat) tushunchasi me'yorlashtirish uchun asosdir. Tilshunoslikda amaliyot jarayonida tinish belgilaridan erkin foydalanish va lingvistik foydalanish tushunchalari bir-biridan farqlanadi. Tinish belgilaridan erkin foydalanish yozma nutq bilan bog'liq hisoblanib, me'yorlashgan punktuatsion belgilardan farqi shundaki, u yozuvchi va tilshunoslar yordamida emas, balki nutq jarayonidan kelib chiqqan holda ongli ravishda o'zgaradi<sup>12</sup>. Tinish belgilariga doir uzual holatlar nafaqat badiiy, balki boshqa funksional uslublarda ham uchraydi. Xususan, ijtimoiy tarmoqlardagi noverbal vositalar qatorida punktuatsion belgilar bilan bog'liq turli xil emotsiyalarni anglatuvchi kombinatsiyalarni uchratish mumkin. Ularda qo'llanilayotgan tinish belgilari boshqa uslubga taalluqli yozma matnlardagi tinish belgilardan farq qiladi. Onlayn muloqotlarni o'z ichiga olgan tarmoq matnlarida yozma nutq boshqa uslublarga nisbatan hissiy kechinmalarni aniqroq etkazishi hamda og'zaki nutqqa juda yaqin bo'lishi sababli tinglovchida katta qiziqish uyg'otadi. Tinish belgilariga oid me'yorlar vaqtlar davomida shakllangan hamda rivojlangan, ijtimoiy tarmoqlarda foydalanilayotgan tinish belgilari bo'lsa bugungi kunda umumiy me'yordan chetlashgan holda mustaqil rivojlanmoqda.

Tadqiqot davomida ushbu matnga oid turli punktuatsion uzuslarni aks ettirgan namunalarni ko'rishimiz mumkin. Masalan: *!! Agar savolingiz yil finalida eng zo'r savol deb topilsa, unda 100 mln so'm (!!!) pul mukofoti beriladi*<sup>13</sup>. Punktuatsion me'yorlarda jumla boshida keladigan tinish belgilari sifatida ko'p nuqta keltirib o'tilgan, ammo yuqoridagi matndan ko'rish mumkinki, boshqa gaplar orasidan ushbu jumlaning ajratish hamda e'tiborni kuchli qaratish maqsadida undov belgisidan foydalanilgan. Keyingi holatda emotsiyani tadrijiy kuchaytirgan holda qavs ichiga uchta undov belgisi qo'llangan. Yendi diqqat jumlagaga emas, balki so'zga qaratiladi. K.Nazarov<sup>14</sup> hamda B.Baxriddinova<sup>15</sup>ning ilmiy tadqiqotlarida fikrning biror qismiga yoki shu fikrga to'liq e'tiroz bildirish, qo'shilmaslik, taajjub, shubhasini bildirish maqsadida, shuningdek, ilmiy-ommabop uslubda matnda alohida ta'kidlangan, mantiqiy urg'u tushgan so'zdan so'ng qavs ichida undov belgisi qo'yilishi ta'kidlab o'tilgan. Bundan tashqari, N.Mahmudov ham "...o'zganing fikr-mulohazasiga muallifning o'ta ma'qullash, alohida ta'kidlash, rozilik yoki kinoya-achchiqlanish,

<sup>12</sup>Биянова М.В. Пунктуационные системы: синхронный и диахронный аспекты: Дисс. ...канд. филол. наук. – Ижевск, 2010. – С. 141 .

<sup>13</sup> <https://t.me/s/Xushnudbek?before=19007>

<sup>14</sup> Назаров К., Эгамбердиев Б. Ўзбек тили ишора-имло коидалари (Пунктуация). – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – Б. 19.

<sup>15</sup> Baxriddinova B. Zamonaviy o'zbek punktuatsiyasi asoslari. – Toshkent: Akademiya, 2015. – B. 21.

ajablanish munosabatini ifodalash uchun”<sup>16</sup> qo‘llanishini keltirib o‘tgan. Yuqoridagi tadqiqotlarda, asosan, namuna sifatida qavs ichida bitta undov belgisi keltirilgan jumlar berib o‘tilgan. Ba’zi hollarda so‘z boshida bitta yoki ikkita undov qo‘llanishi, shuningdek, bu o‘rinlarda so‘roq belgisining ishlatilishini ham ko‘rish mumkin:

*! Orzularingizni erta turmush mashaqqatlariga alishmang. Sifatli ta’lim oling, maqsadlaringiz uchun harakat qiling, kasb egallab katta hayotga tayyor bo‘lgach, baxtli oila quring.*

*? Talabalar yotoqxonada to‘lovida kimlarga imtiyoz beriladi?*

*? 2023-yilda qaysi nodavlat oliygohlarda grant asosida o‘qish imkoni bor? –*

*Ro‘yxat*

*!! Olimlarning aytishicha, avgust oyi oxirida Turkiyaning Istanbul shahrida kuchli zilzila bo‘ladi, 90 foiz binolar qulab er bilan bitta bo‘ladi...*

*! Mirzo Ulug‘bek haqida nimalarni bilasiz? – Metro... – Anov Toj mahalni rafiqasi uchun qurdirganmi? Tarixni bilish bo‘yicha yuqori o‘rindamiz, shekilli?!*

*! Nima bu ahvol, “feministlar” qayerga qarayapti? Xitoy bu ketishda Afg‘oniston bo‘p ketadi-yu? Nima bu???*

Ijtimoiy tarmoqlar sirasiga kiruvchi “facebook” hamda “instagram”da foydalaniladigan tinish belgilari boshqalaridan farqli o‘laroq ko‘p nuqta, bir tomonli qavs hamda ikki nuqtalarning kombinatsiyalari faol ishlatilmoqda. Masalan:

*Videoda ko‘zoynakning barcha detallarini erinmasdan tushuntirib o‘tganman. Videoni ko‘rib, ko‘zoynakni taqqandek bo‘lasiz, ishonavering...));*

*Vanihoyat har bir odam xayfsiz bir-ikki aksessuar taqqan holda ucha oladi), Yertaga “Kotta bollani Getrasidan qidirayapsizmi?” degan sms kelmasa bo‘ldi));*

*Bu shunchaki mening fikrim, siz, albatta, boshqa qarashga bo‘lishingiz mumkin. Siz nima deb o‘ylaysiz, bu kreativlikmi yoki...?!;*

*Soliqlarsiz daromad...!!!;*

*Shunaqa yangiliklar, do‘stlarim...!;*

*Bo‘ydoqlarga: Kal bosh bilan “Ikkita”ni eplayotgan manov odam sizlarga motivatsiya bo‘lsin.));*

*Paradoks gaplarga to‘la soha desak-chi...));*

*Surishtiruvda nomlari tilga olingan, akalar, oshingiz, halolingiz bo‘lsin, bosinglar, bu savodsiz va ko‘r xalqqa bu ham kam.));*

*Xudo qodir qilsa, inshoalloh, berarmonlarimni ham qaytaraman, qiyomatga qolmaydi, nasib bo‘lsa.);*

*Hoji Dardga ariyasini aytib ko‘rish ishtiyoqi bor menda. Sinab ko‘rsammikan?!))*

<sup>16</sup> Mahmudov N., Madvaliyev A., Mahkamov N., Andaniyozova D. O‘zbek tili me‘yorlari (punktuatsiya). – Toshkent: Zamin nashr, 2021. – B. 72.



*Gapirsa – xuddi boshqa birov gapirayotgandek, quloq tutsa – boshqa odam eshitayotgandek, ovqat esa – boshqa kishining og‘zi bilan eyayotgandek. (E.A’zam)*

*Qahraton o‘ldirsa – muzlik lahzadir,*

*Bahor telba etsa – gullik lahzadir,*

*Yoz faqat bahorga gullik lahzadir –*

*O, sening ishqingda o‘lmoq cheksizdir. (U.Azim)*

*Bir ilinj sharpasi bordir? O, agar,*

*Agar sinov bo‘lsa – Haq imtihoni –*

*Xilqatning ko‘ziga sanchildi xanjar,*

*Falakka sachradi go‘daklar qoni,*

*Mening yuragimda tirildi ajal. (R.Parfi)*

-sa shart mayli shaklidan so‘ng tire qo‘llanishining ilmiy asoslari dastlab Karim Nazarovning punktuatsiyaga doir qarashlarida aks etgan. Jumladan, o‘xshatish-qiyoslash, zidlik, shart, sabab tarkibiy qismlarini bildiradigan qo‘shma gap tarkibiy qismlari va shunday munosabatlarni anglatuvchi boshqa tipdagi qurilmalar orasiga tire qo‘yiladi<sup>17</sup>: *Alisher bo‘lsang – chiningni ayt, qovushar bo‘lsang – siringni!* (H.Berdiyev, R.Rasulov) *Amalga mag‘rur bo‘lsang – to‘zdiradi, ilmga mashg‘ul bo‘lsang – o‘zdiradi. (H.Berdiyev, R.Rasulov)*

Abdurauf Fitrat o‘z asarlarida ikkala holatga ham namunalar keltirib o‘tgan: Bir gap ikkiga bo‘linsa, bir bo‘lagiga shart fe’li qo‘shilsa, shart fe’li qo‘shilgan bo‘lak ikkinchi bo‘lakni o‘zining natijasi emish kabi ko‘rsatsa, shunday gapka “shartli gap” deyiladi:

*Tirishsang – toparsan.*

*Ishlasang – tishlarsan*

*Yursam – borarman kabi.*

Shartli gap iki bo‘lak bo‘ladir. Bir bo‘lakka shart fe’li qo‘shiladi. Shartli gapdagi iki bo‘lagi orasiga “yarim tinish” belgisi “,” qo‘yiladi<sup>18</sup>: *Uyumda(n) unga yaxshi donlar bersam, balki ul yaxshig‘ina foyda bergay. (Elbek) Yig‘lasa, juda qiziq bo‘lar emish! (Cho‘lpon) Ko‘p silliq qilsangiz, kuyov olib ketib qoladir. (Cho‘lpon) Miyani ishlatsangiz, sira bir kimsaga zulm qilmag‘an bo‘lursiz. (Saidali)*

Puntuatsiyaga doir so‘nggi me‘yoriy qo‘llanma va darsliklarda kesimi shart maylidagi fe’l (-sa qo‘shimchasini olgan) bilan ifodalangan ergash gapli qo‘shma gaplarda mazkur kesimdan keyin vergul qo‘yilishi<sup>19</sup> me‘yorlashtirilgan. Xulosa qilib aytganda, -sa shart maylidan so‘ng vergul qo‘llanadi, ammo punktuatsion uzus sifatida badiiy uslubda individuallik kasb etish hamda yozuv dizaynidan kelib chiqqan holda tire qo‘llanishi ham uchramoqda.

<sup>17</sup> Назаров К., Эгамбердиев Б. Ўзбек тили ишора-имло қоидалари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – Б. 47.

<sup>18</sup> Fitrat A. Tanlangan asarlar (darslik va o‘quv qo‘llanmalar, ilmiy maqola va tadqiqotlar). Nashrga tayyorlovchi H.Boltaboyev. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2009. – B. 206-207.

<sup>19</sup> Mahmudov N., Madvaliyev A., Mahkamov N., Andaniyozova D. O‘zbek tili me‘yorlari (puntuatsiya). – Toshkent: Zamin nashr, 2021. – B. 83.

She'riy jummalarda biror sintaktik butunlikni etkazish hamda birikmalarning ajralish o'rinlarini ko'rsatish maqsadida atributiv konstruksiyalarni bir qatordan ikkinchi qatorga ko'chirishda tire ishlatiladi. Bunda tire ajraluvchi sintagmalarning orasiga qo'yiladi va ularning bo'linish nuqtasini ko'rsatgan holda yaxlit ko'rinishda talaffuz etilishini ifodalaydi:

*Ufqlarda yoniq afsona –*

*Olgin Yerkin Vohid she'rlarin.* (R.Parfi)

*Ular ko'zing osmonida bezovta –*

*Chaqmoq taxlit naqsh etsinlar dardimni.* (O.Matjon)

*Zo'rg'a ilib turgan to'tiyo –*

*Olov uzra tutar hovuchni.* (X.Davron)

Quyidagi kabi holatlarda ham emotsionallikni kuchaytirish hamda e'tiborni ajratilgan bo'lakka jalb qilish, shuningdek, matndagi ohangning o'zgachaligini bildirish uchun poeziya ko'rinishidagi matnlarda tire ishlatiladi:

*Sog'inchdan dil to'lib buzilganida –*

*Kapalak qonini topinglar menga.* (A.Qutbiddin)

*Hayot tarozisi – elkamda xurjun –*

*Bir ko'z engil shodlik, bir ko'z og'irram.* (E.Shukur)

*Zulmat qo'ynida Oq kema –*

*goh qon tusida,*

*goh sut tusida chayqalar dengiz.* (B.Ro'zimuhammad)

Punktuatsion me'yorlardan ma'lumki, vokativ bo'lak boshqa sintaktik birliklardan vergul bilan ajratiladi. Agar his-hayajon, emotsionallikni kasb etsa, undov belgisi qo'llanadi. Bugungi kunda badiiy matnlarda vokativ bo'lakni tire bilan ajratish ham odat tusiga kirmoqda:

*Butun xalq yo'qotgan eng go'zal ertak –*

*Qani, sening ovozing?..*

*Muztog'lar ichida qolgan bir kema –*

*Qani, sening ovozing?! (E.Shukur)*

*Muhabbat – qora kunlarni*

*Boshdan quva olmadim.* (Faxriyor)

Yuqoridagi kabi holatlar punktuatsion me'yorlarga kiritilmagan bo'lsa-da, K.Nazarov o'z tadqiqotlarida quyidagicha izoh beradi: "Ba'zan ega, kesim va undalmalar ham tire bilan ajratiladi. Bunday ajratishning o'z grammatik va stilistik asoslari bordir. Masalan, undalmalar ta'kidlansa, kuchli emotsionallikka ega bo'lsa, ulardan so'ng tire ishlatiladi. Bu holat individual uslubga aloqador bo'lib, poeziyada ko'proq uchraydi"<sup>20</sup>: *Tonglar, tonglar – sevaman sizni!* (H.Olimjon)

<sup>20</sup> Назаров К. Тиниш белгилари ва ёзма нутқ. – Тошкент: Фан, 1974. – Б. 51.

She'riy matndagi murakkab mavzu elementlarini shakllantirishda, asosan, ohangdorlik, intonasiya va ritmik takroriylikni ta'minlash maqsadida bir xil qolipdagi tinish belgilariga amal qilgan holda turoq va bo'g'inlar miqdori muvofiqlashtiriladi:

*O'ynar bo'ron, o'ynar bo'ron,  
O'ynar mening boshimda.  
Yendi yo'qdur Abdullajon,  
Yigirma besh yoshinda.  
Yo'llar uzun, yo'llar uzun,  
Kunlar ham ko'p cho'zildi.  
Qonli yoshlar to'kdi ko'zim,  
Jigar-bag'rim ezildi. (R.Parfi)*

Yuqoridagi kabi holatlar barcha ijodkorda uchraydi, ya'ni misralar so'nggidagi tinish belgilarining joylashuvi , / . / , / . qolipida punktuatsion uzusni tashkil etadi. Misralardagi gaplar qo'shma gap ko'rinishida ushbu qolipga muvofiqlashadi.

Tadqiqot davomida ayrim o'rinlarda vergulga ehtiyoj bo'lmasa-da, ushbu odatni shakllantirish uchun toq misralar so'nggida bu tinish belgining noo'rin qo'llanganligini uchratish mumkin:

*Sevsang, dunyo bir jom may,  
O'tib bo'lmaydi ichmay.  
Og'a, sening uyingga,  
Kelin bo'lsam, yarashgay. (U.Azim)*

Ushbu punktuatsion uzuslarda murakkab mavzuni tashkil etuvchi elementlarning kommunikativ bir xilligi ularning sintaktik bir xilligi bilan bog'liq sanaladi. Natijada ikkita yoki undan ko'p bo'lgan funksional bir xil komponentlar bitta ma'noviy (rematik) komponentga birlashadi.

Ba'zi o'rinlarda toq misralarda tinish belgilari qo'llanmasligi mumkin, lekin juft misralar fikriy mundarijani yakunlovchi nuqta, so'roq, undov hamda ko'p nuqta bilan ajratiladi:

*Tosh ustida, toshlar ustida  
Ko'nglim erur oy kabi ma'yus.  
Ishq faslida, hijron faslida  
Yig'la, bahor, mening ismim – kuz. (E.Shukur)  
Bir ajoyib qor yog'ar bu kech,  
Uchib tushar mening yonimga...  
Men-ku seni o'ylamasman hech,  
Sen tushasan ammo yodinga... (R.Parfi)  
U jahd etsa, yoding ziyoda,  
Na'ra tortsa, deyman: – Yo, Rahmon!  
U bor ekan yorug' dunyoda,  
Yesimdan chiqmaysan hech qachon! (U.Azim)*

Bugungi kunda erkin vaznda yozilgan she'rlarda umumiy mavzuning ichki tartiblanishi, ya'ni til birliklarining nisbiy mustaqilligi natijasida ijodkor misralarning "parchalanishi" orqali tinish belgilarining lingvopoetik vazifalarini yanada ochiqroq ko'rsatadi.

*"Men turfaman:  
ba'zan toshman,  
ba'zan tuproq;  
yomg'irligim ham bor,  
qorligim ham;  
ba'zan  
moziy o'pqnolari yutadi,  
ba'zan istiqbol ruhimni tepkilar;  
bugunni esa...  
aytib bo'lmaydi! –  
shu sabab,  
holimning eng kattasi  
sabrdir..."* (U.Azim)

Ushbu misralardan ko'rinib turibdiki, har bitta punktuatsiyaga oid bo'lak alohida qatordan joy olmoqda. Har bir misra e'tibor tortishi uchun ularga tinish belgilari anglatadigan izohlash, sanashdagi alohidalik, guruhlanish, izohsiz tushib qolgan jumlar, emotsiya kabilar uyg'unlashgan holda kitobxonga **yetkaziladi**. Bu kabi tinish belgilarini alohida misralarga ko'chirishni boshqa shoirlarning ijodiy namunalarida ham ko'rishimiz mumkin:

*"Siz baxtlisiz...  
Aqldan ozib,  
Men jimman.  
Ishq – umrimga qafas.  
Yuragimni ezg'ilab, bosib  
Yillar o'tdi, yillar...  
Men emas!"* (Z.Mirzo)

Yuqoridagi misralarda murakkab mavzu doirasidagi misralar alohida o'rin egallasa-da, umumiy kommunikativlik ostida birlashadi. Aniqroq qilib aytganda, tinish belgilari yordamida ajratilgan ichki, yashirin rema tematik kompleksning bir qismi sifatida o'ziga xos konstruksiya bo'lib, tinish belgilari yordamida individual kommunikativlikni bajaradi.

Ma'lum bir qoliplashgan punktuatsion uzuslardan yana biri ko'chirma gapli konstruksiyalarning badiiy matn (ayniqsa, she'riy matn) da kalkalash orqali iqtisod qilinishi:

*"– Ishla– Nima uchun?– Yugur!– Nimaga?  
– Televizor kerak!– Mashina!– Buyum..."*

*Bir yilki, boqmadim to'yib dunyoga,  
Sevgilim, unutmaysalar bo'yin". (U.Azim)*

*"– Mana, sen! – dedi. – Tiling bor-a?*

*– Til? Til, bor, ha, til bor!*

*– Tiling bo'lsa, ayt: anovi Hamza kinoteatrini kim qurgan? Tiling bo'lsa, ayt!*

*– Hamza kinoteatrini? Davlat qurgan, nima edi?" (T.Murod)*

Ayrim poetik matnlarda ko'chirma gapli konstruksiyalarda tinish belgilari me'yoriy qonuniyatlardan chetlashmagan holda qo'llangan bo'lsa, ayrim o'rinlarda bu holat individuallik kasb etgan:

*O'qiy deya qabrida duo*

*So'roqladim aytmadi hech kim.*

*"U shu yerda!" – dedi dalalar,*

*"U shu yerda!" – dedi yuragim.*

*"U shu yerda!" – dedi Ko'zlavi,*

*"U shu yerda!" – dedi Mixxor,*

*"U shu yerda!" – dedi zaminga*

*Yetmay hali erib ketgan qor... (X.Davron)*

*Ayting: – Yorug'lik keladi, sen Quyosh,*

*Ayting: – Sovuqlik keladi, sen bir tosh,*

*Ayting: – Qo'rqaman, sen qora kecha,*

*Ayting: – Sen oxiri yo'q, bir ko'cha. (A.Qutbiddin)*

*Bo'g'inma-bo'g'in: – "Dada",*

*Bo'g'inma-bo'g'in: – "Da-da",*

*Faqat alohida – "Urush",*

*– Mana, "Quyosh"*

*– Mana, "Osmon" (A.Qutbiddin)*

Yuqoridagi kabi holatlarda ikki nuqta va tirening yonma-yon kelishi punktuatsion me'yorlarga xos emas.

Ko'rinib turibdiki, leksik-grammatik shart-sharoitlar, belgilanayotgan so'zning morfologik tabiati emfatik urg'u olgan har bitta sintaktik birlikni tinish belgilari yordamida ajratib ko'rsatishga harakat qiladi. Natijada punktuatsion me'yorlardan ko'ra punktuatsion uzus hamda individuallik birinchi o'ringa chiqadi. Aniqroq qilib aytganda, ijodkor tomonidan etkazilmoqchi bo'lgan ma'no va mantiqqa punktuatsion me'yorlar to'laqonli javob bermaydi.

Gap tarkibidagi sintaktik vositalarning ohangdorlik ifodalash uchun ritmik-sintaktik parallelizmni shakllantirishda tirening muhimligini ko'rish mumkin:

*Hurlik – mehnat!*

*Hurlik – birlikdir!*

*Hurlik – sevgi!*

*Hurlik – borlikdir!*

*Hurlik – mehr!*

*Hurlik – quvonchdir!*

*Hurlik – dilda jo 'shgan ishonchdir!* (X.Davron)

*Chiroq yonar – sevimli orzu,*

*Chiroq yonar – so 'ngi yo 'q hasrat.,*

*Turkistonim kabi yonar u,*

*Chiroq yonar – eng go 'zal qismat,*

*Chiroq yonar – sevimli orzu.* (R.Parfi)

*Orzular – mayda,*

*Osmon – past,*

*Zamon – mo 'jiza,*

*Dunyo – tor... (U.Azim)*

Yuqoridagi namunalarda tire metaforik aloqadagi ikki so'zni bog'lash vazifasini bajarmoqda. She'riy nutqda gapning deyarli har qanday bo'lagi mantiqiy va ifodali ravishda tinish belgilari yordamida ajratilishi mumkin. Sodda vaznli she'riy matnlarda sintaktik-konstruktiv aloqalarning grammatik tuzilmasi bir ritmda shakllantiriladi, ammo punktuatsion belgilarning ortiq darajada qo'llanishi bu ohangga ta'sir qiladi. Ayrim o'rinlarda esa tirega me'yoridan ortiq murojaat qilish tavnologik hodisani yuzaga keltiradi:

*Chiroq ko 'targuncha – o 'tadi – ana –*

*Bukchayib – etagin – yig 'ida – kampir –*

*Ming 'irlar – teraman – tilla-do 'lana –*

*Yezg 'ilab – yaxshilab – qoriyman – xamir –*

*Chirog 'i – o 'chadi – ketadi – ana*

*Bukchayib – etagin – yig 'ida – kampir –*

*Bukchayib – etagin – yig 'ida – kampir –*

*Kuchukcha – tamshanar – keladi – bola –*

*Nonushta – qiladi – kulcha – issiq.* (A.Qutbiddin)

She'riy misralarda ohangdorlikni yanada kuchaytirish maqsadi bilan ma'lum bir so'zlarni takror qo'llash ko'plab uchraydi. Bu holatda takroriy so'zlarda kommunikativ ahamiyatga ega bo'lgan umumiy bayonotning ayrim qismlarini aktuallashtirish ko'p nuqta va undov belgisi yordamida amalga oshiriladi:

*Bilarsan, meningday purg 'am,*

*Uzun umring uchun behuda va hech.*

*Kechangdan kechmasa,*

*Xayolingdan ham.*

*Azobing, gunohing –*

*Mendan*

*Yendi kech!*

*Yendi, kech...Endi kech... Yendi kech... (Z.Mirzo)*

*O'sha buloq...*

*Qurigan biroq,*

*Cho'li Iroq, cho'li Iroq.*

*Yo'li yiroq – ko'p yomon...*

*Tun... Kun... Tun... (R.Parfi)*

Xulosa qilib aytganda me'yoriy holatda tinish belgilarining barchasi ham badiiy matndagi poetik vazifalarga xizmat qiladi. Nuqta, vergul, nuqtali vergul, qo'shtirnoq kabi tinish belgilari bajargan poetik vazifalar boshqa til birliklari bilan uyg'unlashib ketadi, shu sababli ularning ushbu xususiyatlari badiiy matnda alohidalik kasb etmaydi. Ko'p nuqta, undov, qavs, tire, ikki nuqta, so'roq kabi punktuatsion belgilarda poetik imkoniyatlar ancha sezilarli bo'ladi. Me'yor tushunchasi amaliyot jarayonida ehtiyojlardan kelib chiqqan holda o'zgarib turadi. Bu o'zgarishlarni uzuslarning me'yorlashishi jarayonida ko'rishimiz mumkin. Barcha til birliklari singari punktuatsiyaga doir me'yorlar ham ma'lum uzuslar hisobiga yangi funksiyalarni o'zida mujassamlashtirgan. Ushbu uzuslarning ba'zilar me'yorlashtirilgan bo'lsa-da, ba'zilar bugungi kunda ham me'yorga kiritilmagan holda ijtimoiy vazifa bajarmoqda. Ijodkor tomonidan etkazilmoqchi bo'lgan ma'no va mantiqqa punktuatsion me'yorlar to'laqonli javob bermaganligi sababli punktuatsion me'yorlardan ko'ra punktuatsion uzus hamda individuallik birinchi o'ringa chiqadi. Shakliy izlanishlar tinish belgilarida ham turli vazifalarni shakllantira boshlaydi. Mavjud me'yorlarga muvofiq yozilgan poetik matnlar barcha ijodkorlarda uchraydigan odatiy uslub sifatida qabul qilinadi, shu bois modernizm estetikasida doimiy me'yorlardan chetga chiqishni ma'lum odatga aylantirish yuzaga kelgan.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Baxriddinova B. Zamonaviy o'zbek punktuatsiyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2015. – B. 21.
2. Begmatov Ye., Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi. II qism. – Toshkent: Navro'z, 1998. – B. 133.
3. Biyanova M.V. Punktuatsionnye sistemy: sinxronnyy i diaxronnyy aspekt: Diss. ...kand. filol. nauk. – Ijevs, 2010. – C. 141.
4. Fitrat A. Tanlangan asarlar (darslik va o'quv qo'llanmalar, ilmiy maqola va tadqiqotlar). Nashrga tayyorlovchi H.Boltaboyev. – Toshkent: Ma'naviyat, 2009. – B. 206-207.
5. Friedrich H. Die Struktur der modernen Lyrik: von der Mitte des neunzehnten bis zur Mitte des zwanzigsten Jahrhunderts. – Reinbek bei Hamburg: Rowohlt, 2006. – P. 310.
6. Karimov S. Til ta'limi va me'yor. O'quv qo'llanma. – Toshkent: A.Qodiriy, 2002. – B. 268.
7. Kondrashova N. Prajskiy lingvisticheskiy krujok. – Moskva: Progress, 1967. – C. 340.

8. Mahmudov N., Madvaliyev A., Mahkamov N., Andaniyozova D. O'zbek tili me'yorlari (punktuatsiya). – Toshkent: Zamin nashr, 2021. – B. 72.
9. Nazarov K. Tinish belgilari va yozma nutq. – Toshkent: Fan, 1974. – B. 51.
10. Nazarov K., Yegamberdiev B. O'zbek tili ishora-imlo qoidalari. – Toshkent: O'qituvchi, 1996. – B. 47.
11. Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1995. – B. 128.
12. Stuckatz K. "Ein beitrag zur modernen weltichtung" ernst jandl und die internationale avant-garde. Doctor of Philosophy. – German: The Pennsylvania State University, 2014. – P. 147.
13. Воробева Е. Н. Экспрессивный синтаксис английского языка: систематический обзор. Филологические науки. Вопросы теории и практики. – 2022. Том 15. Выпуск 7. – С. 2167-2173.
14. Xolmirzaev Sh. Kechirasiz janob Karpenter, vaqtim ziqroq / O'zbekiston adabiyoti va san'ati gazetasi. 2000-y, 27-iyul. – № 31.
15. Yo'ldoshev M. Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi: Filol. fan. d-ri ... diss. – Toshkent, 2009. – B. 25.